

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

IV bosqich talabasi Solieva Dilshodaning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Marhamatlik qatag'on qurbonlari Radjapov Isroil,
Sadjagatov Dadajon, Xasanov Qoryog'di, Ismoiljonov Mulla
Isoqjonlarning taqdiri**

Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi, dotsent M.G'. ABDULLAEV

ANDIJON – 2011

**Mavzu: Marhamatlik qatag'on qurbonlari Radjapov Isroil,
Sadjagatov Dadajon, Xasanov Qoryog'di, Ismoiljonov Mulla
Isoqjonlarning taqdiri**

Reja

KIRISH

**1-bob. MARHAMAT RAYONIDA KOLLEKTIVLASHTIRISH VA
QULOQLASHTIRISHNING O'TKAZILISHI VA UNDAGI
ZO'RAVONLIKLAR.**

1.1. Kollektivlashtirish jarayonidagi ommaviy qatag'onlar.

1.2. «Quloq»qa tortilgan marhamatliklar va ularning taqdiri.

2-bob. MARHAMAT RAYONI OMMAVIY QATAG'ON YILLARIDA.

2.1. 1837-1938 yillardagi qatag'onning Marhamat rayonidagi ko'rinishlari.

**2.2. 1937 yilda Marhamat rayonidan qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning
fojiali qismati.**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

MUNDARIJA

KIRISH	4-8
---------------------	------------

1-bob. MARHAMAT RAYONIDA KOLLEKTIVLASHTIRISH VA QULOQLASHTIRISHNING O'TKAZILISHI VA UNDAGI ZO'RAVONLIKLAR

1.1. Kollektivlashtirish jarayonidagi ommaviy qatag'onlar.	9-14
1.2. «Quloq»qa tortilgan marhamatliklar va ularning taqdiri.	15-19

2-bob. MARHAMAT RAYONI OMMAVIY QATAG'ON YILLARIDA

2.1. 1837-1938 yillardagi qatag'onning Marhamat rayonidagi ko'rinishlari	20-25
2.2. 1937 yilda Marhamat rayonidan qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning fojiali qismati	26-38

XULOSA	39-41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	42-43
ILOVALAR	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishilganidan keyingi yillarda o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ulkan o'zgarishlar yuz berdi, bu sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu ulkan o'zgarishlar o'tmish voqea-xodisalaridan to'g'ri saboq olish va bunga ko'ra istiqbolni to'g'ri belgilashni taqozo etadi. Bu borada tarix fanining roli beqiyos bo'lib, uning ahamiyati ham mustaqillik yillarida tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida el-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab mash'um xatarlarni necha bor ko'rgani, ularning jabru-jafosini tortgani haqida to'xtalib, shunday yozadi: «Shunday asoratlardan tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.¹

Istiqlol yillarida Vatanimiz tarixining sovet hukmronligi davrida soxtalashtirilgan voqea-xodisalari tamoman yangidan yozilmoqda, tariximiz qanday kechgan bo'lsa, shundayligicha xolisona talqin qilinmoqda. Xususan, O'zbekistonda sovet hukmronligi davrida amalga oshirilgan ommaviy qatag'onlar tarixi ham birlamchi arxiv manbalari asosida haqqoniy o'rganilmoqda.

Stalin boshchiligidagi bolsheviklar tomonidan 1937-1938 yillarda amalga oshirilgan qatag'onlar o'zbek xalqi boshiga ham og'ir musibatlar soldi, bu jarayon juda fojiali kechdi. O'zbekistonlik juda ko'plab davlat arboblari, olimlar, ziyolilar va oddiy dehqonlar 1937-38 yillarda NKVD organlari tomonidan to'qib chiqarilgan soxta ayblovlar bilan qatag'on tigi'ga tortildi.

Sovet davlati va kompartiya rahbariyati bunday mudhish qatag'onlar vositasida milliy respublikalarni asoratda uzoq tutib turishni mo'ljallagan edi. Haqiqatan ham, qatag'on tigi' birinchi navbatda xalqning ilg'or fikrli, ziyoli, mustamlakachilikning butun illatlarini tushunib etadigan qatlamlariga qarshi qaratilgan edi. Ular asossiz ravishda «xalq dushmani», «aksilinqilobchi», «yot unsur» degan to'qima ayblar bilan yo'q qilib yuborildi. Bolsheviklar o'z kirdikorlarini yashirish, ommaviy qatag'onlarning go'yo adolatli o'tkazilayotganligini isbotlash uchun butun vositalarni ishga solganlar. Ommaviy matbuotda xalq ichidan etishib chiqqan ilg'or fikrli kishilar nomi badnom qilindi, ularning «xalq dushmani» ekaniga ommaning aksariyat qismi, ayniqsa yoshlar ishontirildi.

Mustaqillik yillaridagina sovetlar tomonidan amalga oshiirilgan qatag'onlarning butun kirdikorlari, uning tub ildizlari va maqsadlari oshkor bo'ldi. Istiqlol yillarida nohaqdan qatag'on domiga tortilgan yurtdoshlarimizning pok nomlari tiklana boshladi. Mustabid tuzum tomonidan o'tkazilgan qatag'onlar tarixini o'rganish va nohaqdan qatag'on qilingan yurtdoshlarimiz nomini aniqlash va ular xotirasini abadiylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bir qancha farmon va qarorlari e'lon qilindi. Prezidentimiz I.A. Karimovning 2001 yil 1 mayda qabul qilgan «Qatag'on qubonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida» farmonida shunday deyiladi: «El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida, xalqimizning qadr-qimmatini, or-nomusini, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo'lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi»².

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 iyuldagi «Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qarorida shahid bo'lgan

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – Б. 4-5.

² Халқ хотираси олдида бош эгамиз. Т.: «Шарқ», 2001. 14-бет.

yurtdoshlarimiz nomin abadiy saqlash va kelgusi avlodlarga etkazish maqsadida ko'p jildlik «Qatag'on qurbonlari» xotira kitobini yaratish va nashr etish vazifasi qo'yilgan edi. Bu qonuniy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasida «Shaxidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi va muzeyi tashkil qilindi.

Bu boradagi ishlar Andijon Davlat universitetida ham amalga oshirilmoqda. Bu yerda professor R.T. SHamsutdinov rahbarligida 1937-1938 yillarda NKVD «uchlik»lari tomonidan qatag'on qilib yuborilgan o'zbekistonliklarning nomlari, yashash joylari va ijtimoiy kelib chiqishi keltirilgan va ularga belgilangan jazo choralari ko'rsatib o'tilgan hujjatlar to'plamlari nashr qilindi.¹

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishda yangi nashr qilingan hujjatlar to'plamlarida nomlari qayd qilingan vatandoshlarimizning avlodlarini izlab topish, ularning hayot yo'lini, achchiq qismatini o'rganish maqsadi belgilandi. Chunki, bu asarlarda nomlari keltirilgan Andijon viloyatining turli tumanlaridan qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning avlodlarini izlab topish, qatag'on qilinganlarning keyingi taqdirini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda 1937 yilda Marhamat rayonining turli qishloqlaridan qatag'on qilib yuborilgan Radjapov Isroil, Sadjagatov Dadajon, Xasanov Qoryog'di, Ismoiljonov Mulla Isoqjonlarning qatag'on qilinish sabablari va ularning keyingi taqdirini o'rganishni vazifa qilib qo'ydik.

Izlanishlarimiz natijasida ulardan ayrimlarining avlodlarini topishga va suhbatlashishga muvaffaq bo'lindi. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan vatandoshlarimiz qishloq fuqarolari bo'lib, dehqonchilik bilan kun kechirganlar. Ularning barchasiga soxta ayblovlar bilan turli jazo choralari belgilangan. Biz ularning bugungi kunda hayot bo'lgan avlodlari xotiralari va esdaliklari, saqlanib qolgan hujjatlar va rasmlarga tayangan holda ularning ayanchli taqdirini o'rganishga ma'lum darajada muvaffaq bo'ldik.

Bitiruv malakaviy ishda asosan quyidagi vazifalarni hal qilishga harakat qilindi:

- qishloq xo'jaligini yoppasiga kollenktivlashtirish siyosatining boshlanishi va uning Marhamat rayonidagi o'ziga hos ko'rinishlari yoritib o'tildi;
- Marhamat rayonida quloqlashtirish kampaniyasining o'tkazilishi, uning mohiyati, quloqqa tortilgan marhamatliklar miqdori va ularning ijtimoiy tarkibi tahlil qilindi;
- 1937-1938 yillardagi "katta terror"ning boshlanishi va uning mohiyati o'rganildi, ommaviy qatag'onlarning ko'lami, alohida rayonlardagi xususiyatlari yoritib o'tildi.
- 1937 yilda Marhamat rayonidan qatag'on tig'iga tortilgan dehqonlar va ularning ayanchli qismati va taqdiri masalalari avlodlari xotirasi va esdaliklari asosida yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda sovetlar tomonidan o'tkazilgan qatag'onlarning mohiyati va uning butun fojialari Marhamat rayoni misolida ko'rib o'tildi. Shuningdek, ishimizda 1930-1932 yillarda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosatining Marhamat rayonidagi xususiyatlari va mudhish oqibatlari, quloqqa tortilgan marhamatlik dehqonlar, ularning ayanchi taqdiri masalasi ham

¹ Репрессия. 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск 1. /Сост.: Р.Т.Шамсутдинов, Н.Ф.Каримов, Э.Ю.Юсупов. – Т.: Шарк, 2005. – С. 288. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август-5 ноябрь) Иккинчи китоб. – Т.: Шарк, 2007. – Б. 496. Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Под. ред. Н.Ф. Каримова. /Сост.: Р.Т. Шамсутдинов, Э.Ю. Юсупов, А. Мамажонов, Э. Дусматов. Выпуск 3. Жертвы большого террора из Узбекистана. 1937 год ноябрь. – Т.: Шарк, 2007. Репрессия 1937-1938 гг. Выпуск 4. Жертвы большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. /Отв. ред. Каримов Н.Ф., Шамсутдинов Р.Т. //Сост.: Р.Т. Шамсутдинов, М. Абдуллаев, Э. Дусматов, Х. Курбанов. – Т.: Шарк, 2008. – С. 576. Среднеазиатский кишлак в годы большого террора. Документы и материалы. /Сост.: Р.Т.Шамсутдинов, Э.Ю.Юсупов, С.Хошимов, Э.П.Дусматов. – Андижан: Изд. АндГУ, 2007. – 500 с. Қатағон қурбонлари (1938 йил февраль, сентябрь). Бешинчи китоб. /Таҳрир хайъати Р.Шамсутдинов ва бошқ. //Тузувчилар гуруҳи: Р.Шамсутдинов, Х.Қурбанов, Ж.Расулов, Ф.Эгамбердиев, У.Бекимметов. – Т.: «Шарк», 2009. 416 б.

o'rganildi. Eng muhim tomoni shundaki, 1930-1932 yillarda quloq qilingan dehqonlarning ma'lum bir qismi 1937-38 yillarda yana qaytadan qatag'on qilinganlar. Bitiruv malakaviy ishda ayni shu tomonlar ham o'rganildi.

1-bob. MARHAMAT RAYONIDA KOLLEKTIVLASHTIRISH VA QULOQLASHTIRISHNING O'TKAZILISHI VA UNDAGI ZO'RAVONLIKLAR

1.1. Kollektivlashtirish jarayonidagi ommaviy qatag'onlar

Sovet hukumatining qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish va «quloqlarni sinf sifatida tugatish» siyosati boshlang'ich davridanoq zo'ravonlik bilan amalga oshirila boshlangan. O'zbekistonda, jumladan Andijonda qishloq xo'jaligini sotsialistik asosda qayta qurish harakati butun mamlakat uchun yagona bo'lgan jarayon doirasida o'tkazila boshlandi. Biroq, qator milliy respublikalar qatori O'zbekistonda ham talay o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, bular o'lkaning tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish spetsifikatsiyasi va ishlab chiqarish munosabatlarida ta'siri katta bo'lgan urf-odat va an'analar edi. Afsuski, kollektivlashtirish jarayonida bu o'ziga xos xususiyatlar e'tiborga olinmadi. Eng muhimi, kollektivlashtirish harakati bolsheviklar hukumatiga xos bo'lgan «inqilobiy» shiddat bilan, xalq ommasiga nisbatan zo'rlik va qatag'on usullarini keng qo'llagan holda o'tkazila boshlandi.

1930 yilning 5 yanvarida VKP(b) MK «Kollektivlashtirish sur'atlari va kolxoz qurilishiga davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi.¹ Bu qarorda ittifoqning barcha respublikalarida mahalliy sharoitlarga ko'ra kollektivlashtirishni yakunlash muddatlari belgilab berildi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo respublikalari uchinchi guruhga kiritilgan bo'lib, bu respublikalarda kollektivlashtirish birmuncha sust borayotganligi ta'kidlangan edi. Qarorda O'zbekistonda kollektivlashtirishni 1933 yilda yakunlash rejalashtirilgan edi.

O'zKP(b) MKning 1930 yil 17 fevraldagi qarori bilan respublikadagi 17 ta rayon yoppasiga kollektivlashtirish rayoni deb belgilandi. Bu rayonlardan to'rttasi – Asaka, Shahrixon, Jalaquduq, Norin rayonlari Andijon okrugi tarkibiga kirar edi. Marhamat rayoni yoppasiga kollektivlashtirish rayoni sifatida belgilanmagan bo'lsada, bu erda ham kolxoz harakati avj oldirib yuboriladi. Andijon okrugida kollektivlashtirishni o'tkazish bo'yicha siyosiy shtablar tashkil etilib, bu shtablar Markaz ko'rsatmalarini bajarish uchun kampaniyaning boshida turib, asosan zo'ravonlik usullariga e'tiborni kuchaytirdilar. Qishloqlarda an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni buzish avj oldi. Qishloq aholisi zo'rlik bilan kolxozlarga kiritila boshlandi.

1930 yilning 18 fevralida Andijon okrugi ijroiya komiteti «Andijon okrugidagi yoppasiga kollektivlashtirish rayonlarida tashkiliy-amaliy ishlar to'g'risida» qaror qabul qiladi. Unda kollektivlashtirish o'tkazish belgilangan rayonlarda yuqoridan belgilab berilgan ko'rsatmalarni bajarish zarurligi va uni belgilangan muddatda bajarish chora tadbirlari ko'rsatib o'tilgan edi.²

Andijon okrugining rayonlari qatori Marhamat rayonida ham butun diqqat-e'tibor kollektivlashtirishga qaratildi. Qishloq aholisini kolxozlarga kirishga tashviq qilish uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. O'zbekistonga Rossiyaning markaziy rayonlaridan 437 ishchi yuborildi, ular bilan birgalikda maxalliy ishchilar sinfi o'z saflaridan 263 kishini safarbar qildi.³ Farg'ona vodiysini otaliqqa olgan Ivanovo-Voznesenskiy ishchilari o'z brigadalarini Farg'ona va Andijon okruglariga yubordilar. «25 mingchilar»dan Andijon okrugiga 33 kishi kelgan.

¹ Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том.1. /Сост. Р.Т. Шамсутдинов, Б.М. Расулов. Т.: «Шарк», 2006. стр. 53-56.

² Андигон тарихидан лавхалар. Андигон, 2008. 224-бет.

³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. Т.: «Шарк», 2001. 348-бет.

Andijon okrugi rayonlarida ham kollektivlashtirish harakatida raqamlar ortidan quvish avj oldi. Dehqonlarni majburan kolxozlarga kiritib boshladilar. Kollektivlashtirish amaliy jihatdan buzg'unchilik harakatiga aylanib ketdi. Ko'pincha qishloqlarning aholisini bu erdan ko'chirib yuboramiz, oziq-ovqat ta'minotidan, er-suvdan mahrum qilamiz, deb qo'rqitib kolxozga kirishga majbur qilardilar.

1930 yilning fevral oy boshlarida Marhamat rayoni ham yoppasiga kollektivlashtirish rayonlari qatoriga kiritildi. 1930 yilning fevral oy o'rtalaridagi ma'lumotga ko'ra, Marhamat rayonida jami dehqon xo'jaliklari 8319 ta bo'lib, ulardan 7820 tasi kolxozlarga kiritilgan, rayonda kollektivlashtirish ko'rsatkichi 94 foizni tashkil qilgan.¹ Kollektivlashtirish sur'ati bo'yicha respublikadagi o'rtacha ko'rsatkich bilan Andijon okrugidagi ko'rsatkich taqqoslanganda, Andijonda kollektivlashtirish kampaniyasi nisbatan shiddatliroq o'tkazilganligi ma'lum bo'ladi.

Mahalliy rahbarlarda kollektiv xo'jaliklar haqida etarli tushuncha bo'lmaganligi bois, ular tashkil etilgan kolxozlarda uy-joylarni, mayda hayvon va parrandalarni, xatto idish-tovoqlarni ham umumiyashtirish holati Andijon okrugi rayonlarida ham kuzatildi. Marhamat rayonida ham kolxozlar tashkil etishda shoshma-shosharlik, avj oldi, joylarda qonunbuzarlik, majburlash, nohaq soliqlar solish, quloq qilish, surgun qilish, dag'dag'a bilan qo'rqitish, xullas, qatag'on qilish siyosati avj oldi. Mahalliy rahbarlar qanday qilib bo'lsa ham yuqori natijalarga erishish uchun har qanday hatti-harakatlardan qaytmas edilar.

Bunday zo'ravonliklarning ortib borishi tabiiy ravishda xalqning noroziligini keltirib chiqarishi muqarrar edi. OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) organlarining 1930-1934 yillardagi informatsion materiallari o'z davrining siyosiy manzarasini aniq aks ettirgan. Ularda Stalin boshchiligidagi rahbariyatning mamlakatning asosiy aholisi bo'lgan dehqonlarga nisbatan qatag'on siyosati yaqqol o'z ifodasini topgan.

OGPUning 1930 yildagi maxfiy hisobotlarida dehqon xo'jaliklarini ommaviy qatag'on qilish – quloqlashtirish masalasi ham diqqat markazida turgan. Binobarin, OGPUning 1930 yil 11 yanvardagi №771 sonli direktivasi «quloqlar»ga yalpi zarba berishga qaratilgan tadbirlarning muqaddimasi bo'lgandi. Unga ko'ra, repressiv chorani faqat quloq xo'jaliklarga emas, balki direktivada aniq belgilab berilgan «tashkilotlar, guruhlar, yakka holdagi jinoyatchilar»ga, «quloq-oqgvardiyachi-bandit unsurlar» deb nomlangan kishilarga – ya'ni butun ommaga qarshi jazo choralari keng qo'llash ko'zda tutilgan edi. Ushbu direktiva OGPUning joylardagi barcha muxtor vakilliklariga yuborilib, tegishli o'lka va oblastlar bo'yicha «quloq-oqgvardiyachi-bandit unsurlar»ga mansub guruhlar, to'dalar, tashkilotlar va shaxslar miqdori haqida agentura ma'lumotlarini zudlik bilan aniqlashtirib, 14 yanvarga qadar markazga etkazilishi buyurilgan².

Ilmiy adabiyotlarda ayrim hududlarda ushbu ko'rsatma berilgan 1930 yilning 11 yanvaridan keyin quloq deb hisoblangan dehqon xo'jaliklarini tugatish bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborilgani aytiladi. Biroq, mamlakatda quloq qilish rasman VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1930 yil 30 yanvardagi «Yoppasiga kollektivlashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish tadbirlari haqida»gi qarori e'lon qilinganidan keyin boshlangan. Bu qarorda quloq xo'jaliklari toifalarga ajratildi va toifalar bo'yicha qatag'on qilinadiganlar normasi belgilandi. Birinchi toifa «aksilinqilobiy faol»lardan – terrorchilik harakati tashkilotchilari va sovetlarga qarshi faoliyat ko'rsatganlardan iborat bo'lishi belgilanib, ularni qamoqqa olish va siyosiy jinoyatchi sifatida kontsentratsion lagerlarga yuborish yoki oliy jazo qo'llash lozimligi belgilangan. Ularning oila a'zolarini esa mamlakatning chekka mintaqalaridagi maxsus manzilgohlarga surgun qilish ko'rsatildi. Bu hududlarga shuningdek, ikkinchi toifaga kiruvchi «yirik quloqlar, yarim pomeschiklar va kollektivlashtirishga qarshi faol qarshilik ko'rsatganlar» ham oila a'zolari bilan birga surgun qilinishi lozim edi. Quloqlarning qolgan qismi (3-toifa) esa

¹ Андигон тарихидан лавхалар. Андигон, 2008. 226-227-бетлар.

² Шамсутдинов Р. Қишлоқ жожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т.: «Шарқ», 2003. 166-бет.

yashab turgan o'lka yoki viloyat ichida, faqat xo'jaliklar yashab turgan qishlog'idan boshqa joylarga, kolxoz erlaridan tashqaridagi chekka erlarga ko'chirilishi belgilandi. Quloq qilinadiganlarning umumiy miqdori barcha dehqon xo'jaliklarining 3-5 foizini tashkil etishi lozimligi qarorda ko'rsatib o'tildi. Lekin 1 va 2-toifalar bo'yicha «cheklangan kontingentlar» soni ko'rsatildi: mamlakatning asosiy qishloq xo'jalik rayonlaridan birinchi toifa bo'yicha 60 ming xo'jalik, ikkinchi toifa bo'yicha 150 ming xo'jalik¹.

1930 yil mart oyiga kelib, butun respublikada kollektivlashtirishga qarshi dehqonlarning norozilik harakatlar avj oldi. Andijon okrugining ayrim tumanlarida ommaviy chiqishlar yuz berdi. Farg'ona vodiysidagi xalq ommasining chiqishlari sovet hokimiyatiga qarshi siyosiy kurashlar tusini oldi. Butun respublikada bo'lganidek, Marhamat rayonida ham majburiy tashkil qilingan kolxozlar tarqalib keta boshladi. 1930 yilning 1 mayiga kelib Marhamat rayonida dehqon xo'jaliklarining faqat 10 foizi kolxozlarda qoldi, qolgan xo'jaliklar kolxozlardan chiqib ketdilar. Respublika bo'yicha esa kollektivlashtirish darajasi 1930 yil martidan may oyiga qadar 47,8 foizdan 27,5 foizga tushib qoldi.

Mahalliy partiya rahbarlarining eng katta xatosi kollektivlashtirishning yuqori foizlari ortidan quvib, eng ilg'or rayonlardan o'zib ketishga intilish bo'lgan edi. Bu esa respublika markazining okruglarga kolxoz qurilishi sohasida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar berishiga olib kelgan. Bu hol o'z navbatida xalq ommasi noroziligining ortib borishiga sabab bo'lgan. Bu holatlarning barchasi sovet davlatining o'zbek qishlog'ida, jumladan Andijonda amalga oshirgan zo'ravonlik siyosati natijasida yuz bergan edi. Lekin sovetlarning chekinishi uzoq davom etmadi. Sovetlar qisqa muddatli tanaffusdan so'ng kollektivlashtirish siyosati amaliyotining yangi to'lqinini boshlab yubordi. Ommaviy norozilik harakati tashkilotchilari va faol qatnashchilari OGPU organlari tomonidan qamoqqa olindi. Jumladan, Andijon okrugi bo'yicha aksilinqilobiy faoliyat ko'rsatganlikda ayblangan 607 kishi qamoqqa olingan. Qamoqqa olinganlarning 257 nafari boylar, 31 nafari dindorlar, 22 nafari savdogarlar, 54 nafari o'rtahol dehqonlar, 33 nafari kambag'al dehqonlar bo'lgan, qolganlarning ijtimoiy taalluqliligi aniqlanmagan.² Sovet hukumati bu yo'l bilan ma'lum darajada xalq noroziligini bostirishga erishdi. Dehqonlarning eng faol, tashabbuskor, xalqni o'z ortidan ergashtira oladigan qismi qatag'on qilib yuborildi. Qatag'on qilinganlar orasida nafaqat boylar, balki, oddiy kambag'al dehqonlar ham bor edi.

Xullas, sovet hukumati barcha joylarda bo'lganidek, Marhamat rayonida ham kollektivlashtirishni amalga oshirishda asosan zo'ravonlik, majburlash, tazyiq o'tkazish usullariga asosiy e'tiborni qaratdilar. Kolxoz qurilishi borasida dehqonlarga xech qanday tushuntirish ishlar olib borilmadi. Kolxoz qurilishi jarayonida norozilik bildirgan juda ko'plab dehqonlar nohaqdan qatag'on qilib yuborildi. Quloq qilish, surgun qilish tadbirlaridan tashqari, bqorida ko'rsatib o'tilganidek, ko'plab dehqonlar qamoqqa olindilar. Ularning ma'lum bir qismi otib tashlandi, qolganlari esa kontslagerlarga jo'natildi.

1.2. «Quloq»qa tortilgan marhamatliklar va ularning taqdiri

Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki kunlardan oq bolsheviklar o'lkani asoratda ushlab turish, ular ustidan sovet hokimiyatini mustahkamlash uchun qattiqqo'llik bilan siyosat yurita boshlaganlar. Sovetlar va kompartiya birinchi navbatda mulkdorlar qatlamini sovet davlatining dushmani deb e'lon qilib, ularga nisbatan qaqshatqich kurash boshladi. Ayniqsa, qishloqdagi er-suvli, mulkdor qatlam vakillari «quloq» deb nomlanib, ular ta'qibga oлина boshlagan.

Turkistonda 1920-1921 yillarda, O'zbekistonda 1925-1929 yillarda o'tkazilgan er-suv islohoti davrida ham sovetlarning asosiy siyosati «kapitalistik unsurlar» deb atalgan sarmoyadorlaru-savdogarlar, er-suv egalari va umuman mahalliy badavlatlar qatlamiga qarshi

¹ Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. 175-бет.

² Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. Том.1. 216-бет.

qaratilgan edi. Turkiston sovetlarining 1920 yil sentyabrida bo'lib o'tgan IX qurultoyi qarorlarida ham «boy-quloq xo'jaliklari»ni cheklash, ularni asta-sekinlik bilan siqib chiqarish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilangan edi.¹ Ularning fuqarolik huquqlari chegaralanib, xaddan tashqari katta miqdorda moliyaviy soliqlar solinadi. Qishloqlardagi er-suvi bor dehqonlar «feodal boylar, o'tmish sarqiti» deb e'lon qilinadi. Ularning erlari, bog'-rog'lari, qishloq xo'jalik asboblari, uy hayvonlari majburan tortib olinadi va ular davlat mulki deb e'lon qilinadi.

1929 yil oxirlaridan e'tiboran sovet davlati qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish siyosati va amaliyotini keng ko'lamda boshlab yubordi. Kompartiya oliy organlari va sovet hukumati tomonidan e'lon qilingan qaror va ko'rsatmalarda kollektivlashtirish sur'atlarini kuchaytirish, unga ommaviy tus berish, «quloq» xo'jaliklarini sinf sifatida tugatish shiori o'rta tashlandi.²

Mahalliy hokimiyat organlari markaz ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish uchun kollektivlashtirishning boshida turib ko'proq majburlash, zo'ravonlik usullariga e'tiborni kuchaytirdilar.

Boshqa joylarda bo'lgani kabi Marhamat rayonida ham kollektivlashtirish jarayonida ming yillar davomida shakllangan dehqonchilik bilan bog'liq qadriyatlar va an'analar qo'pollik bilan toptaldi. Mahalliy rahbarlar raqamlar ortidan quvib kollektivlashtirish kampaniyasini zo'ravonlik bilan amalga oshira boshladilar. Qishloq aholisining badavlat, o'ziga to'q qatlamlariga qarshi quvg'in uyushtirildi, dehqonlar majburan kolxozlarga kiritila boshladilar. Kolxozga kirishni istamaganlar ham quloq qilib yuborila boshlandi.

Kollektivlashtirishni bunday sun'iy tarzda kuchaytirish, dehqonlarga kuch ishlatish, majburlash natijasida 1930 yil o'rtalariga kelib Marhamat rayonida kolxozlarning soni 91 taga etdi. Rayondagi dehqon xo'jaliklarining 44,3 foizi kolxozlarga birlashtirildi.³

Kollektivlashtirish bilan bir paytda «quloq» qilish kampaniyasi ham keskin ravishda amalga oshirildi. Eng achinarlisi, bu tadbirni o'tkazishda qonunsizliklar yuz berib, zo'ravonlik usullari qo'llanildi. «Quloq»larga qarshi kurash shiori ostida asosan tadbirkor, ishbilarmon xo'jaliklarga qarshi yalpi hujum boshlandi. Xatto oddiy dehqonlar dindorligi uchun yoki mahalliy ma'muriyatdan norozi bo'lgani uchun ham quloqqa tortildi. Dindor ulamolar esa «SHo'roga haqsiz» deb e'lon qilindi, fuqarolik huquqidan mahrum qilindi. 1930 yil avgust oyiga kelib «sho'roga haqsizlar» soni tuman bo'yicha 56 oilani tashkil qildi.⁴ Bu ko'rsatkich keyingi yillari ko'payib bordi. Huquqni poymol qilish va zo'ravonliklar faqat «quloq» xo'jaliklarigagina emas, balki qishloqning barcha qatlamlariga nisbatan ham qo'llandi.

1931 yil bahoridan kollektivlashtirish va quloq qilishning yangi to'lqini boshlandi. Quloq xo'jaliklarini tugatishda iqtisodiy usullardan keng foydalanildi. YA'ni o'ziga to'q, badavlat xo'jaliklarga katta miqdorda soliq solindi, bunday xo'jaliklar kredit, ssuda va boshqa imtiyozlardan maxrum qilindi. Marhamat rayoni bo'yicha bu paytda 50 ta «quloq» xo'jaligi individual tartibdagi qishloq xo'jalik solig'iga tortilgan. Jumladan, «Russkoye selo»dan 12 xo'jalik, Kulla qishloq sovetidan 5 xo'jalik, SHukurmergan qishloq sovetidan 3 xo'jalik, Qushchi qishloq sovetidan 4 xo'jalik, Beshkapa qishlog'idan 2 xo'jalik, Qorabog'ish qishloq sovetidan 7 xo'jalik, Boboxuroson qishloq sovetidan 4 xo'jalik, Marhamat qishloq sovetidan 1 xo'jalik, Ko'tarma qishloq sovetidan 5 xo'jalik, Qoraqo'rg'on qishloq sovetidan 5 xo'jalik, O'qchi qishloq sovetidan 2 xo'jalik individual tartibdagi soliqqa tortilgan. Bu xo'jaliklar zimmasiga jami 39753 so'm 25 tiyinlik soliq majburiyati yuklangan.⁵ Agar 1930-31 xo'jalik

¹ Ўзбекистон ССР тарихи 3-том. Тошкент, «Фан», 1971. 243-бет.

² Шамсуддинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. Тошкент, «Шарқ», 2001. 57-бет.

³ Ватанимиз ўтмишидан. «ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA», 2007. 84-бет.

⁴ Тошболтаев Қ. Марҳамат: қишлоқларимиз ҳаётидан баҳс. «ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA», 2007. 98-бет.

⁵ Ватанимиз ўтмишидан. 85-86-бетлар.

yilida Marhamat rayonining 12 ta qishloq sovetida istiqomat qilayotgan 2777 dehqon xo'jaligi 54327 so'm 21 tiyin soliq to'laganini e'tiborga olsak, «quloq» xo'jaliklariga qanchalar og'ir majburiyat yuklanganligiga amin bo'lamiz. Tabiiyki, bunday majburiyat «quloq» xo'jaliklarini oxir-oqibatda xonavayron bo'lishiga olib kelardi.

1931 yilning avgust oyida Marhamat rayoni bo'yicha quloq xo'jaliklarini yangidan aniqlash tadbiri o'tkazildi. Tadbir davomida qishloq sovetlari bo'yicha quyidagi miqdorda yangi «quloq» xo'jaliklari ro'yxatga olingan: Qo'shchi qishloq sovetidan 10 ta xo'jalik, SHimon qishloq sovetidan 5 ta xo'jalik, Qoraqo'rg'on qishloq sovetidan 12 ta xo'jalik, Boboxuroson qishloq sovetidan 8 ta xo'jalik, Qorabog'ish qishloq sovetidan 15 ta xo'jalik, Kulla qishloq sovetidan 14 ta xo'jalik, Ko'tarma qishloq sovetidan 16 ta xo'jalik, Beshkapa qishloq sovetidan 18 ta xo'jalik, Russkoe selo qishloq sovetidan 19 ta xo'jalik, Shukurmergan qishloq sovetidan 9 ta xo'jalik, O'qchi qishloq sovetidan 14 ta xo'jalik, Marhamat qishloq sovetidan 11 ta xo'jalik, rayon bo'yicha esa, jami 151 ta xo'jalik «quloq» xo'jaligi sifatida ro'yxatga olingan va ular zimmasiga individual soliq majburiyati yuklangan.¹

Marhamat tumanida «quloq» sifatida ro'yxatga olingan xo'jaliklar soni tobora ortib borgan. O'sha davrga oid bir hujjatda 1930-31 xo'jalik yilida tuman bo'yicha 158 ta «quloq» xo'jaligi borligi aytilgan. 1932 yil 13 noyabrdagi holat bo'yicha tumanda 290 nafar quloq xo'jaligi bo'lgan.

1931 yildan e'tiboran Marhamat tumanida ham «quloq» xo'jaliklarini tugatish va surgun qilish tadbirlari avj oladi. Quloq sifatida ro'yxatga olingan xo'jaliklarning butun mol-mulki: uy-joyi, er-suvi, uy-ro'zg'or asbob-uskunalari, chorva hayvonlari davlat foydasiga musodara qilinib, o'zlari toifalar bo'yicha respublikadan tashqariga yoki respublikaning chekka rayonlarida tashkil qilingan maxsus posyolkalarga surgun qilib yuborilganlar. 1932 yilning 28 mayigacha Marhamat rayonidan 142 ta «quloq» xo'jaligi birinchi va ikkinchi toifa bo'yicha oila a'zolari bilan birga respublikadan tashqariga, boshqa o'lkalarga surgun qilinganlar. Ularning umumiy soni 635 kishi bo'lib, ulardan 197 nafari erkaklar, 153 nafari bolalar bo'lgan.² Respublikadan tashqariga surgun qilingan xo'jaliklar asosan, Ukrainaning Xerson oblastining cho'l zonalariga, Shimoliy Kavkaz o'lkasiga, qisman G'arbiy Sibir va Shimoliy Qozog'istonning o'zlashtirilmagan hududlariga joylashtirilganlar. Ikkinchi va uchinchi toifa bo'yicha surgun qilingan «quloq» oilalarining aksariyati respublikaning ichki hududlaridagi chekka rayonlarda tashkil qilingan maxsus posyolkalarga ko'chirilganlar. Marhamat rayonidan ushbu toifa bo'yicha «quloq» qilinganlarning ma'lum bir ko'pchilik qismi Bekobod rayonidagi «Dalvarzin», Qo'rg'ontepa rayonidagi «Savay», Uchqo'rg'on rayonidagi «Norin» «quloq posyolkalari»ga ko'chirilganlar.

Yoppasiga kollektivlashtirish yillarida Marhamat rayonidan turli toifalar bo'yicha tugatilgan va surgun qilingan «quloq» xo'jaliklarining aniq miqdori ma'lum emas. Chunki, bu jarayon bir necha yil, hatto kollektivlashtirish yakunlanganidan keyingi yillarda ham davom etgan. Qolaversa, bu masalaga dahldor hujjatlar ham to'la saqlanib qolmagan. Mavzuga oid adabiyotlarda 1930-1932 yillarda Marhamat rayoni hududlaridan «quloq» sifatida ro'yxatga olingan va turli ma'muriy-huquqiy jazolarga tortilgan 190 ta «quloq» xo'jaligining ro'yxatlari keltirilgan.³ Bu dehqon xo'jaliklari totalitar tuzum davrida sovet hukumati amalga oshirgan majburiy kollektivlashtirish davrida nohvqdan jazolandilar. Ular ishbilarmonligi va tadbirkor dehqonligi uchungina shunday og'ir jazoga tortilgandilar. Eng muhimi esa, surgun qilinmay qolgan dehqon xo'jaliklariga turli og'ir majburiyatlar yuklandi, ular zimmasiga katta miqdordagi soliqlar solinadi. Ular 1937-1938 yillardagi ommaviy siyosiy qatag'onlar davrida

¹ Ватанимиз ўтмишидан. 86-бет.

² Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеси: жамоалаштириш, кулоклаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т.: «Шарқ», 2003. 302-бет.

³ Қаранг: Ватанимиз ўтмишидан. 89-93-бетлар; Тошболтаев Қ. Марҳамат: қишлоқларимиз ҳаётидан баҳс. 103-109-бетлар.

yana qaytadan ta'qibga olindilar. Ularga ustidan turli ig'volar, bo'htonlar to'qib chiqarildi va qatag'on qilib yuborildi. 1937-1938 yillardagi «Katta terror»ning yuzaga kelishi va uning fojialari, Marhamat rayonidan qatag'onga tortilgan dehqonlarning ayanchli taqdiri xususida keyingi bobda to'xtalib o'tiladi.

2-bob. MARHAMAT RAYONI OMMAVIY QATAG'ON YILLARIDA

2.1. 1837-1938 yillardagi qatag'onning Marhamat rayonidagi ko'rinishlari

Mustabid sovet tuzumi davridagi ommaviy qatag'onlar sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki kunlardan boshlanib, u to SSSRdek «qizil saltanat» parchalanib ketgunga qadar davom etdi. Qatag'onlik sovet tuzumi va jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi, uning tabiiy yo'ldoshi sifatida namoyon bo'lgandi. 1930 yillarning o'rtalariga kelib bu mudhish siyosat o'zining kulminatsion nuqtasiga ko'tarildi.

S.M. Kirovning 1934 yil 1 dekabrda otib o'ldirilishidan keyin butun mamlakatda ommaviy qatag'onlar avj olib ketdi. O'sha kunning o'zida SSSR MIKning dahshatli qarori chiqdi. Endi «terrorchilik harakati»da ishtirok etishda ayblanganlar, siyosiy ishlar bo'yicha qamoqqa olinganlar ishi shoshilinch, tezkor ko'rib, o'n kun ichida yakunlanishi, ayblov xulosasi sudda ko'rilishiga bir kun qolganida aybdorga berilishi, ish tarafdorlar ishtirokisiz ko'rilishi, hukm ustidan shikoyat arizasi va avf haqidagi iltimosnoma berishga yo'l qo'ymaslik, darhol otuv jazosini qo'llash, hukmni o'sha zahoti ijro etish huquqi NKVD tergovchilari qo'lga berib qo'yildi. SHu kundan katta terror zilzilasi butun mamlakatni o'z domiga tortdi, millionlab sovet kishilarini jismonan yo'q qilish, kamoqqa olishdan iborat mudxish qatliom jarayoni boshlandi.¹

1937 yilning may-iyun, ayniqsa so'nggi bir yarim oyi davrida «xarbiy-fashistik isyonchilar» otilganidan so'ng bo'lajak ommaviy qatag'on kampaniyasini intensiv rivojlantirish amalga oshiriladi. Iyul oyining boshlarida bo'lajak terrorning yuz minglab qurbonlari taqdirini belgilovchi qarorlar qabul qilingan. Ulardan eng muhimi Siyosiy byuroning 1937 yil 2 iyuldagi «Sovetlarga qarshi unsurlar to'g'risida»gi qarori bo'lib, u «katta terror» davrining eng ko'lamli qatag'on operatsiyasini o'tkazish uchun o'ziga xos start edi.

Yuqoridagi qaror asosida NKVDning 00447-sonli buyrug'i («Quloqlar to'g'risidagi buyruq») tayyorlangan. Unga ko'ra, 1937 yil 5 avgustdan 1938 yil noyabr o'rtalarigacha maxsus tashkil etilgan «uchlik»lar kamida 800 ming kishini tergov qilib, ulardan yarmini otuvga hukm qilganlar.² 1937 yil avgustidan NKVD milliy respublikalarda ham qatag'on operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha bir necha buyruqlar chiqaradi. Bu bilan 1937-1938 yillardagi terror qurbonlari soni deyarli 350 ming kishiga ko'paytirib yuboriladi.

1937 yil 30 iyuldagi 00447-sonli «sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya to'g'risida»gi operativ buyruqda avvalida qatag'on qilingan, qatag'on bo'lishdan yashirinib yurgan, lagerlardan, surgundan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda va shaharlarda o'rnatilgan olgani qayd qilingan. Buyruqda NKVD organlariga bu antisovet unsurlarni qatag'on

¹ Шамсутдинов Р.Т. Истиқлол йўлида шахид кетганлар. Т.: «Шарқ», 2001. 10-11-бетлар.

² Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб. (1937 йил 10 август – 5 ноябрь) Т.: «Шарқ», 2007. 15-бет.

qilish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Ana shu holatdan kelib chiqib, 1937 yil 5 avgustdan barcha respublikalar, o'lkalar va oblastlarda sobiq quloqlar, faol antisovet elementlar va jinoyatchilarni qatag'on qilish bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish belgilanadi. Bu operatsiya O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRda 1937 yil 10 avgustdan boshlanishi belgilangan.¹

Buyruqda operatsiyani o'tkazish bo'yicha 7 punktdan iborat yo'riqnoma ham keltirilgan. Unda qatag'on qilinadiganlar kontingenti ko'rsatilgan bo'lib ular asosan sobiq quloqlar, lagerlardan yoki maxsus posyolkalardan qochib kelgan sobiq quloqlar, fashistik, terrorchi va bandit to'dalari va guruhlar a'zolari, ijtimoiy xavfli unsurlar, sovetlarga qarshi partiyalar (eserlar, gruzmekilar, dashnoqlar, musavatchilar, ittixodchilar), faol antisovet qo'poruvchi faoliyat olib borayotgan sobiq oqlar, jandarmlar, chor chinovniklari, banditlar, turmalarda, lagerlarda, mehnat posyolkalarida antisovet faoliyat olib borayotganlar, sektantlik faollari, ruhoniylar, jinoiy faoliyat olib borayotgan jinoyatchilar (banditlar, talonchilar, o'g'ri-retsdivistlar) va jinoiy muhit bilan bog'langanlar, qishloqlarda va kolxozlarda, sovxozlarda, shaharlardagi sanoat korxonalarida, transportda, savdo muassasalarida hamda qurilishda turli qo'poruvchilik ishlarini olib borayotganlar bo'lgan.²

Yuqoridagi ko'rsatmalar bo'yicha butun mamlakatda ommaviy qatag'onlar avj oldirib yuboriladi. Buyruqqa binoan milliy respublikalarda ham qatag'onlarni o'tkazish bo'yicha «uchlik»lar tashkil qilinadi. Birinchi navbatda birinchi toifadagi kontingentlar qatag'on qilinadi. Qatag'onlarni tezkorlik bilan o'tkazish uchun respublikalar, o'lkalar va oblastlarda yuzaga kelgan vaziyatga muvofiq ravishda operativ sektorlar tashkil qilingan. Har bir sektor bo'yicha operatsiyani tashkil etish va o'tkazish uchun operativ guruhlar ham tuzilgan. Bu guruhlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni eplay oladigan NKVDning mas'ul xodimlaridan iborat tarkibda tuzilgan.

Operativ guruhlar boshliqlariga qatag'on qilinadiganlarni aniqlash va ularning hisobini olib borish, tergovga, tasdiqlangan ayblov xulosalariga hamda «uchlik»larning hukm chiqarishlari va ularning ijro etilishiga rahbarlik qilish vazifasi topshirilgan.

Joylardan aniqlangan har bir qatag'on qilinayotganlar uchun batafsil ma'lumotlar, aybdor qiluvchi soxta materiallar to'plangan. Bu materiallar asosida qamoqqa olinadigan ro'yxati tuzilgan. Ular operativ guruh a'zolari tomonidan imzolangan va 2 nusxada ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun NKVDga, uning boshqarma yoki viloyat bo'limi boshliqlariga yuborilgan. Bu organlar ro'yxatlarni ko'rib chiqib, tvqdim etilgan ro'yxatdagi shaxslarni xibsga olish haqida sanksiya berganlar. Tasdiqlangan ro'yxat asosida operativ guruh boshlig'i qamoqqa olgan. Har bir qamoqqa olish order bilan rasmiylashtirilgan. Xibsga olish paytida qunt bilan tintuv olib borilgan, qurol, o'q-dori, harbiy anjomlar, portlovchi moddalar, zaharlovchi moddalar, aksilinqilobiy adabiyotlar, qimmatbaho buyumlar va tangalar, chet el valyutasi, ko'paytiruvchi moslamalar va turli yozishmalar musodara qilingan. Barcha musodara qilingan narsalar bayonnomaga kiritilgan.³

Joylarda tashkil qilingan «uchlik»lar asosan ikkita toifa bo'yicha hukm chiqargan. Birinchi toifadagilar otuv jazosiga, ikkinchi toifadagilar esa 8-10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. 1-toifa bo'yicha hukmlar ijrosi respublika xalq komissari, NKVD boshqarmasi, bo'lim boshliqlari ko'rsatmasi bilan vaqti va joyi yashirin holatda bajarilgan. Xukmning ijrosi haqidagi hujjatlar har bir hukm etilganing tergov ishiga alohida konvertda solib qo'yilgan.

2-toifa bo'yicha hukm etilganlar SSSR NKVD GULAG (Lagerlar bosh boshqarmasi) xabar qilgan naryadlar asosida tegishli o'lkalardagi qamoqxona va lagerlarga etap holida jo'natilgan.

¹ Репрессия 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск 1. / Составители: Шамсутдинов Р.Т., Каримов Н.Ф., Юсупов Э.Ю. – Т.: «Шарк», 2005. стр. 33.

² Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб. 16-17-бетлар.

³ Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб. 18-бет.

«Katta terror» davrida, ya'ni 1937 yil 10 avgustdan 1938 yil 1 yanvargacha bo'lgan vaqtda O'zbekiston bo'yicha faqat sobiq «quloq»lardan 5924 kishi, jinoyatchilardan 1679 kishi, «sovetlarga qarshi unsurlar»dan 3097 kishi jami 10700 kishi qamoqqa olingan. Ulardan 3613 kishi 1-toifa bo'yicha otuv jazosiga, 7087 kishi esa 2-toifa bo'yicha 8-10 yil muddat bilan qamoq jazosiga, mehnat tuzatuv lagerlariga hukm qilingan. 1-toifa bo'yicha otuvga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan. 2-toifa bo'yicha hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan.¹

Ko'p jildlik arxiv hujjatlari to'plamida 1937-1938 yillarda «uchlik» qarori bilan jazoga tortilgan o'zbekistonlik qatag'on qurbonlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. 1937 yil 10 avgustdan 5 noyabrgacha bo'lgan vaqt ichida «uchlik» qarori bilan O'zbekiston bo'yicha qatag'on qilinganlardan 3083 maxbusdan 1688 kishi otuvga, 1369 kishi 8-10 yil mehnat-tuzatuv lageriga, 36 nafari qamoqdan ozod qilishga hukm qilingan. Bu qatag'on qilinganlarning milliy tarkibida o'zbeklar 2361 kishi, ruslar 462 kishi, tatarlar 58 kishi, qozoqlar 33 kishi, turklar 31 kishi, armanlar 24 kishi, nemislar 20 kishi, ukrainlar 18 kishi, tojiklar 16 kishi, polyaklar 12 kishi, ozarbayjonlar 10 kishi, uyg'urlar 5 kishi, afg'onlar 3 kishi, xitoylar 3 kishi, gruzinlar 3 kishi, frantsuzlar 1 kishi bo'lgan.

Maxbuslarning ijtimoiy tarkibi quyidagicha bo'lgan: quloqlar 1543 kishi, kolxozchilar 781 kishi, diniy xizmatchilar 437 kishi, savdogarlar 149 kishi, jinoyatchilar 87 kishi, boylar 54 kishi, xizmatchilar 132 kishi, ijtimoiy axvoli aniqlanmaganlar 645 kishi, ular orasida xunarmandlar, aravakashlar, qorovullar, sartaroshlar, sotuvchilar, o't o'chiruvchilar, nafaqaxo'rlar, nogironlar, xazinachilar, qassoblar, dallollar va boshqalar bo'lgan.²

Yuqorida keltirib o'tilgan qatag'on qurbonlaridan ma'lum bir qismini Marhamat rayonidan xibsga olinganlar tashkil qilgan. Qatag'on siyosati bu rayonda ham juda dahshatli kechgan. Marhamat rayonidan ham juda ko'pchilik bevyb ravishda otib tashlangan yoki qamoqqa tashlangan. Qamoqqa olinganlarning deyarli barchasi qamoq joylarida yoki kontslagerlarda o'lib ketganlar. Masalan, «Repressiya 1937-1938 gg.» ko'p jildlik hujjatlar to'plamining 3-jildida 1937 yilning 13-28 noyabr oralig'ida qatag'on qilingan o'zbekistonliklar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu vaqt oralig'ida jami 1611 kishi ustidan hukm chiqarilib, ulardan 278 tasi otuv jazosiga hukm qilingan, 17 kishi xibsdan ozod qilingan, qolganlari esa 8-10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. Ularning ijtimoiy tarkibida «sobiq quloqlar» 811 kishi (50,5 %), ishchi va xizmatchilar 207 kishi (13 %), ruxoniylar 138 kishi (8,6 %), «mashg'uloti aniqlanmaganlar» 240 kishi (15 %) bo'lgan.³

Bu qatag'on qilinganlar orasida Marhamat rayonidan qatag'on qilinganlar jami 26 kishini tashkil qilgan. Ularning asosiy qismini kolxozchi dehqonlar, ma'lum bir qismini esa ruhoniydindorlar tashkil qilgan. Ular Marhamat rayonining turli qishloqlarida istiqomat qiyotgan kishilar bo'lib, ularning barchasi sovet hukumati siyosatiga tuhmat va ig'vo gaplar tarqatganlikda, antisovet targ'ibot olib borganlikda, kolxozchilar o'rtasida yolg'on gaplar aytganlikda, kolxozlar haqida, Stalin va boshqa partiya rahbarlariga qarshi gapirganlikda ayblanganlar.

Biz o'zimizning ushbu bitiruv malakaviy ishimizda Marhamat rayonidan qatag'on qilinganlardan Radjapov Isroil (Repressiya, 3-kitob, 55-bet.), Sadjagatov Dadajon (Repressiya, 3-kitob, 97-bet), Xasanov Qoryog'di (Qatag'on qurbonlari 2-kitob, 48-bet), Ismoiljonov Mulla Isoqjonlar (Qatag'on qurbonlari 2-kitob, 52-bet) ning hayot yo'li va taqdirini o'rganishga harakat qildik. Ularning ayanchli qismati masalasi keyingi paragrafda yoritib o'tiladi.

¹ Шамсутдинов Р.Т. Катагон қурбонлари. Иккинчи китоб. 20-бет.

² Шамсутдинов Р.Т. Катагон қурбонлари. Иккинчи китоб. 20-21-бетлар.

³ Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. /Сост.: Шамсутдинов Р., Юсупов Э., Мамажанов А., Дусматов Э. Т.: «Шарк», 2007. стр. 6.

2.2. 1937 yilda Marhamat rayonidan qatag'on qilingan yurtdoshlarimizning fojiali qismati

Bizning ushbu bitiruv malakaviy ishimizda 1937 yilda Marhamat rayonidan qatag'on qilingan vatandoshlarimizdan ayrimlarining taqdiri va qismati yoritib o'tildi. SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yil 30 iyuldagi 00447-sonli buyrug'ida milliy respublikalarda ommaviy qatag'onlarni o'tkazishga mas'ul bo'lgan «uchlik»lar tashkil etish ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, O'zbekiston SSR bo'yicha «uchlik» N.A. Zagvozdin (respublika ichki ishlar xalq komissari), A.Ikromov (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining birinchi kotibi), To'rabekov (Xalq Komissarlari Soveti raisining o'rinbosari) lardan iborat tasdiqlangan. Uning yig'ilishlarida O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlin, kotib sifatida esa O'zSSR NKVD Davlat xavfsizlik boshqarmasi 8-bo'limi boshlig'i Yakovlev ishtirok etishi belgilangan.¹ 1937-1938 yillardagi qatag'onlar davrida «uchlik» tarkibi ayrim yig'ilishlarda o'zgarib ham turgan. Buni «uchlik»ning turli sanalardagi yig'ilishlarida ishtirok etganlar tarkibidan bilishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizda asosan 1937 yilda qatag'on qilingan Marhamatliklardan Radjapov Isroil, Sadjagatov Dadajon, Xasanov Qoryog'di, Ismoiljonov Mulla Isoqjonlarning hayot yo'li o'rganilgan. Ularning avlodlarini izlab topish, ular haqida ma'lumot to'plash uchun Marhamatning turli qishloqlarida bo'lib, imkon qadar aniq ma'lumotlar olishga harakat qilindi. Quyida ularni tanigan, bilgan keksa kishilar va bugungi kunda yashab turgan avlodlaridan yozib olingan xotiralarga tayanib yozilgan ma'lumotlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Radjapov Isroil O'zSSR NKVD xuzuridagi «uchlik»ning 1937 yil 13 noyabrdagi yig'ilishida qatag'on qilingan. «Uchlik» tarkibi O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Apresyan, O'zKP(b) MK kotibi Yusupov, O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Segizboevlardan iborat bo'lib, bu yig'ilishda O'zSSR prokurori SHeyndlin ham qatnashgan. 13 noyabrdagi №33 yig'ilishga O'zSSR NKVD Davlat xavfsizlik boshqarmasi 8-bo'limi boshlig'i Baronenko kotiblik qilgan. O'zSSR NKVD Andijon sektori boshlig'i Makarevich taqdim etgan № 11138-sonli «jinoiy ish»da Radjapov Isroil haqida quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan:

Radjapov Isroil – 1897 yilda tug'ilgan, Marhamat rayoni Shukurmergan qishloq sovetida yashagan, sobiq quloq, 1932 yilda quloq sifatida xo'jaligi tugatilgan. SHu yili 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan, qamoq joyidan qochib ketgan va soxta hujjatlar bilan yashab yurgan. Qamoqqa olingan vaqtda Karl Marks nomli kolxozda brigadir bo'lib ishlagan. U sovet davlatiga nisbatan mag'lubiyatchilik xarakteridagi aksilinqilobiy tashviqot olib borganlikda, xalq dushmanlarini olqishlovchi aksilinqilobiy faoliyat olib borganlikda ayblangan.

«Uchlik»ning 1937 yil 13 noyabrdagi yig'ilishida Radjapov Isroil 10 yil muddatga Mehnat-tuzatuv lageriga qamoqqa hukm qilingan. Hukm muddati 1937 yil 1 oktyabrdan hisoblangan.²

Radjapov Isroilning avlodlari bugungi kunda ham Marhamat rayonining Shukurmergan qishlog'ida istiqomat qilmoqdalar. Biz uning nabirasi Isroilov Abdurazzoq aka bilan uchrashib, suhbatlashdik. Uning hikoya qilishicha, bobolari Radjapov Isroil oddiy dehqon bo'lgan, avval kolxozlashtirish davrigacha o'zining otasidan qolgan erda sholi, qovun-tarvuz ekib, tirikchilik qilgan. Kollektivlashtirish siyosati boshlanganidan keyin Shukurmergan qishlog'ida tashkil qilingan Marks nomli kolxozga a'zo bo'lib kirgan. Uning kollektivlashtirish davrida quloq sifatida tugatilgani va 5 yil muddatga qamoqqa hukm qilingani haqida nabiralari ma'lumotga ega emas, shuningdek, mahalladagi keksa kishilar ham bu haqda aniq bir gap aytisha olmadi. Lekin shunisi ma'lumki, u qamoqqa olingan vaqtda haqiqatan ham kolxozda paxtachilik brigadiri bo'lib ishlagan. Radjapov Isroil mirishkor dehqon bo'lib, xar-xil qishloq xo'jalik ekinlarining qay paytda ekilishi va ularni chopiq qilish, sug'orish vaqtlarini juda yaxshi bilgan. Ko'plab

¹ Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари. Иккинчи китоб. 19-бет.

² Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. /Сост.: Шамсутдинов Р., Юсупов Э., Мамажанов А., Дусматов Э. Т.: «Шарк», 2007. 55-бет.

dehqonlar va qo'ni-qo'shnilar bu borada undan maslahatlar olganlar. Qisqacha aytganda uning mahallada va qishloqda o'ziga yarasha obro'-e'tibori bo'lgan. Radjapov Isroilning bировga yomonligi ham tegmagan. Tabiatan yuvosh, og'ir-bosiq kishi bo'lgan ekan. Uning qamoqqa olinishi va uzoq muddatga hukm qilinishi sababi ko'pchilikka noma'lum bo'lib qolgan. Bizningcha, uning qatag'on qilinishiga o'tmishda quloq bo'lganligi va uning jinoiy ishida aytib o'tilganidek, 1932 yilda 5 yil muddatga qamoqqa hukm qilinib, qamoq joyidan qochib ketganligi bahona bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Lekin bu haqda aniq ma'lumot ololmadik.

Nabirasi Isroilov Abdurazzoq akaning aytishicha, 1937-1938 yillarda Shukurmergan qishlog'idan nohaqdan qamoqqa olinib, qatag'on qilib yuborilganlar ko'p bo'lgan. Ularning aksariyati chaquv natijasida, NKVD organlariga yolg'on ma'lumotlar etkazish orqali qamoqqa olingan. Qatag'on qilib yuborilganlarning aksariyati qishloqda obro'-e'tiborli kishilar bo'lgan. Ularning bobolari ham ana shunday tuhmat qurboni bo'lgan edi.¹

Radjapov Isroil dehqonchilik qilish bilan birga chorva hayvonlari boqish bilan ham shug'ullangan. Uning mol-qo'ylari ham bo'lgan, lekin boy bo'lmagan, o'rtahol dehqon bo'lgan. Uy-joyi ham boshqalarnikidan deyarli farq qilmagan. Uning yoppasiga kollektivlashtirish yillarida quloq qilinganligi va mol-mulklarining musodara qilinganligi haqida nabirasi Isroilov Abdurazzoq aka aniq bir ma'lumot bilmaydi. Faqat dadasi, ya'ni Isroilov Abdurahmon tog'a aytib bergan ba'zi bir gaplarni eslab qolgan xolos. Uning aytishicha, otasi kolxoz ishiga, paxtazorga ketganicha, uyga qaytib kelmagan. Qo'ni-qo'shnilari uni rayondan kelgan, shapka kiygan kishilar rayon markaziga raykom majlisiga borasan deb olib ketganlar. Bu 1937 yilning kuzida bo'lgan, kun juda issiq paytlar bo'lib, g'o'za ko'sak olgan davr bo'lgan. Uning qo'ni-qo'shnilari va brigada a'zolari paxta masalasi bo'yicha majlis bo'lar ekanda, deb uncha e'tibor bermaganlar. Chunki paxta masalasi bo'yicha bunday majlislar rayon markazida tez-tez bo'lib turgan. Uning rayon markazidan qaytishini bir necha kun kutganlar. Lekin u qaytib kelmaganidan keyin oila a'zolari kolxoz raisining oldiga surishtirib borganlar. Lekin rais ham aniq bir gap ayta olmagan. Oradan uch-to'rt kun o'tganidan keyin qishloq sovetining raisi Radjapov Isroilning uyiga kelib, uning qamoqqa olinganligini aytgan. Lekin qanday sabab bilan, nima uchun qamoqqa olingani haqida xech narsa aytmagan.

Radjapov Isroilni orqasidan so'rab-surishtiradigan kishisi ham bo'lmagan. To'g'rirog'i, bu kabi qama-qamalar barcha qo'shni qishloqlarda ham bo'layotganligi bois, bиров qamalgalarni so'rab-surishtirishdan qo'rqqan. Barcha o'z jonini o'ylab, jim yurgan. Oila a'zolari uning aybsiz ekaniga ishonib, bir kun qaytib keladi, degan umid bilan kutganlar. Lekin u qaytib kelmagan. Oradan bir-ikki oylar o'tganidan keyin sel'sovet kotibi Radjapov Isroilning qamalib ketganini uyiga kelib, xotiniga aytgan. Uning qancha muddatga va qaerga qamoqqa jo'natilganligi haqida xech narsa bilmaganlar.²

Radjapov Isroilning xotinining ismi Xidoyatxon bo'lgan. Xidoyatxon aya urushdan keyingi yillarda vafot etib ketgan. Ularning ikki o'g'li va bir qizlari bo'lgan. Qizlari Salimaxon tug'ilgan yili no'malum, Quvaga turmushga chiqqan, 1970 yillarda vafot etgan. Uning o'g'il-qizlari xozirda Quvada yashashadi.

Radjapov Isroilning katta o'g'li Abdurahim 1922 yilda tug'ilgan, otasi qamoqqa olingan paytda 15 yoshda bo'lgan. U otasi qamoqqa olingan paytda ancha yosh bo'lgan, maktab o'quvchisi bo'lgan. Otasi qamoqqa olinganidan keyin dalada turli ishlar bilan shug'ullangan, oilani boqish uchun onasiga yordamlashgan. Urush boshlangan paytda kolxozda traktorchiga yordamchi bo'lib ishlar edi. 1943 yilda urushga ketib, qaytib kelmagan. U urushga olingan paytda uylanmagan edi, uning avlodlari qolmagan. Ikkinchi o'g'li Abdurahmon 1926 yilda tug'ilgan, otasi qamalgalan paytda u 11 yoshda bo'lgan. Abdurahmon ham otasi qamalib

¹ Раджапов Исроилнинг набираси Исроилов Абдураззоқ ака ҳикояси.

² Раджапов Исроилнинг набираси Исроилов Абдураззоқ ака ҳикояси.

ketganidan keyin mol-qo'y boqib yurgan. Urush boshlanganida ularning oilasi juda qiyin ahvolda qolgan. Akasi Abdurahim urushga ketganidan keyin oilani boqish uning zimmasiga tushgan. Uni urushga olmaganlar. Kolxozda turli ishlar bilan shug'ullangan. Suvchilik, tabelchilik va brigadirlik qilgan. U urushdan keyingi yillarda uylangan. U uzoq vaqt kolxozda paxta brigadiri bo'lib ishlagan. Abdurahmon tog'a kolxozda ishlab yurgan paytida, ya'ni brigadirlik qilib yurgan paytda 1985 yili to'satdan vafot etgan. Uning ikki qizi va ikki o'g'li bor. Qizlari qo'shni Paxtakor kolxoziga turmushga chiqib, bolali-chaqali bo'lib ketganlar.

Radjapov Isroilning nabirasi Isroilov Abdurazzoq aka 1951 yilda tug'ilgan. Shukurmergan qishlog'ida o'qib, ulg'aygan. Zooveterinariya texnikumida o'qigan. Kolxozlar tarqab ketgunga qadar sobiq Ilbich kolxozi fermasida ishlagan. Abdurazzoq aka 1975 yilda uylangan. U uylanganidan keyin 5-6 yil o'tgach, ya'ni otasining o'limidan biroz avval qo'shni mahallaga yangi uy solib ko'chib chiqqan. Ota uyida ukasi 1956 yilda tug'ilgan Abdulaziz qolgan. Abdulaziz aka 1980 yilda uylangan, uning uylanishiga akasi bosh-qosh bo'lgan. Xozir uning oilasi bobolaridan qolgan uyda yashamoqdalar. Abdulaziz akaning kasbi duradgorlik bo'lib, Rossiyaga Perm shahriga ishlagani borar ekan. Biz borgan paytda u ikki o'g'li bilan Rossiyaga ketgan ekan.

Shukurmergan qishlog'idagi yoshi katta kekxa kishilardan Parpivoy ota va Iminjon tog'alar ham qatag'on qurboni Radjapov Isroil haqida nabirasi aytib berganidek, oddiy dehqon bo'lgani, qatag'on yillarida qamalib qaytib kelmagani haqida aytib berdilar. Uning qaysi joyga qamalganini ham bilmaganlar. CHunki, u savodsiz bo'lganligi uchun xat-xabar ham kelmagan. Uning o'lik yoki tirik ekanligi noaniq bo'lib qolgan. Afsuski, undan birorta rasm yoki shunga o'xshash yodgorlik saqlanib qolmagan. Abdurazzoq aka bobosining 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilinganini biz olib borgan kitobdan o'qib bildi va g'oyatda ta'sirlandi. Lekin biz ham Radjapov Isroilning qaysi joyga qamoqqa jo'natilganini aytib berolmadik.

Radjapov Isroilning nevara-chevaralari bobolarining nohaqdan qatag'on qilinganini, bugungi kunda ularning nomlari oqlanib, xotiralari abadiylashtirilayotgani, ularga bag'ishlab xotira kitoblari chiqarilayotganini bilib, juda xursand bo'ldilar. Uning nabirasi Abdurazzoq akaning 5 ta farzandi bor, ulardan uchasi o'g'il, ikkitasi qiz. Bir qizini turmushga bergan va bir o'g'lini uylagan. Qolgan farzandlari kollej va maktablarda o'qimoqdalar. Xozirda katta o'g'li Farruhbek Rossiyaga ishlagani ketgan, kichik o'g'li Furqatbek armiyada ekan. Abdurazzoq akaning o'zi tomorqa ishlari bilan shug'ullanadi. Uning adirda eri ham bo'lib, u erda bog' qilgan. Abdurazzoq aka bobosi taqdiri bilan qiziqib, ularni axtarib borganimizdan juda xursand bo'ldi.

Sadjagatov Dadajon O'zSSR NKVD xuzuridagi «uchlik»ning 1937 yil 13 noyabrdagi yig'ilishida qatag'on qilingan. «Uchlik» tarkibi O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Apresyan, O'zKP(b) MK kotibi Yusupov, O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Segizboevlardan iborat bo'lib, bu yig'ilishda O'zSSR prokurori Sheyndlin ham qatnashgan. 13 noyabrdagi №33 yig'ilishga O'zSSR NKVD Davlat xavfsizligi boshqarmasi 8-bo'limi boshlig'i Baronenko kotiblik qilgan. O'zSSR NKVD Marhamat rayoni bo'limi boshlig'i Naumov taqdim etgan №11200-sonli «jinoiy ish»da Sadjagatov Dadajon haqida quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan:

Sadjagatov Dadajon – 58 yoshda (1979 yilda tug'ilgan), Marhamat rayoni SHukurmergan qishloq sovetida yashagan. Sobiq quloq, quloq qilingan, 1930 yilda surgun qilingan. Qamoqqa olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Sadjagatov Dadajon surgundan qaytib kelganidan keyin kolxozchilar orasida sistematik ravishda aksilinqilobiy tashviqot olib borganlikda, sovet hukumatiga qarshi ig'vo gaplar tarqatganlikda ayblangan. U O'zSSR Jinoyat Kodeksining 66-moddasi, 1-bandi bo'yicha aybdor deb topilgan. «Uchlik»ning 1937 yil 13 noyabrdagi yig'ilishida Sadjagatov Dadajon 10 yil muddatga Mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Hukm 1937 yil 28 oktyabrdan hisoblangan.¹

¹ Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. /Сост.: Шамсутдинов Р., Юсупов Э., Мамажанов А., Дусматов Э. Т.: «Шарк», 2007. 97-бет.

Biz Sadjagatov Dadajonning avlodlarini izlab Marhamat tumanining SHukurmergan qishlog'iga bordik. SHukurmergan qishlog'i katta qishloq bo'lib, uning barcha mahallalarini aylanib, so'rab-surishtirdik. Lekin uning avlodlarini topa olmadik. Mahalla fuqarolar yig'inidagilar ham, qishloqdagi kekxa kishilar ham Sadjagatov Dadajon haqida aniq ma'lumot ayta olishmadi. Qisqasi, bizning Sadjagatov Dadajon avlodlarini topish borasidagi izlanishlarimiz natija bermadi.

Hasanov Qoryog'di O'zSSR NKVD xuzuridagi «uchlik»ning 1937 yil 8 sentyabrdagi yig'ilishida qatag'on qilingan. «Uchlik» tarkibi O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Zagvozdin, O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o'rinbosari To'rabekov va O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlinlardan iborat bo'lgan. «Uchlik»ning 1937 yil 8 sentabrdagi №8-sonli bayonnomasiga ko'ra, shu kuni andijonliklardan 41 kishi otuv jazosiga hukm qilingan. Otuvga hukm qilinganlar orasida Hasanov Qoryog'di ham bo'lgan. Bayonnomada u haqida quyidagicha ma'lumot keltirib o'tilgan:

Hasanov Qoryog'di – 1900 yili Marhamat rayoni Bar-Bar (aslida Gargar) qishlog'ida tug'ilgan, quloqqa tortilgan. Kolxozga kirib olib, kolxoz qurilishi zaiflashuvi va buzilib ketishiga qaratilgan antisovet targ'ibot olib borgan, kolxozchilarni kolxozdan chiqishiga, mulkni umumiy lashtrilishiga qarshilik ko'rsatishga chaqirgan, mag'lubiyatchilik kayfiyatini tug'dirish, monarxik tuzumdagi hayotni maqtaganlikda ayblangan.¹

Biz Hasanov Qoryog'dining avlodlarini izlab Marhamat rayonining Gargar qishlog'iga bordik. Gargar qishlog'i Qoraqo'rg'on qishloq fuqarolar yig'ini tarkibidagi katta mahalla hisoblanadi. Gargar mahalla fuqarolar yig'ini raisi Umarov Mirzabahrom aka Hasanov Qoryog'di haqida ma'lumot izlashda bizga katta yordam berdi.

Hasanov Qoryog'dining Gargar qishlog'ida yashab o'tganligini biz bu qishloqda suhbatlashgan yoshi ulug' kekxa kishilar SHarobiddin tog'a va Esonboy tog'alar aytib o'tdilar. Lekin afsuski, uning avlodlari xozir bu erda yashashmas ekan. Ularning hikoya qilishlaricha, bu qishloqda ilgari Hasanboy ismli kishi bo'lib, u nisbatan boy odam bo'lgan. Uning millati qirg'iz bo'lgan. Er-suvi ko'p, mol-qo'ylari serob bo'lgan. Uning bir nechta xotinlari ham bo'lgan. Lekin qaysidir xotinidan ikki o'g'li bo'lgan. O'zi 1920 yillarda xaj ziyoratiga ketib qaytib kelmagan. SHundan so'ng uning oilalari tarqalib ketgan. Undan qolgan o'g'illaridan kattasi ham savdo-sotiq ishlari bilanmi, boshqa bir ishlar bilanmi Gargar qishlog'ini 1930 yillarning boshida tashlab ketgan. U shu baravar qaytib kelmagan. Uning ismini aytib berisha olmadilar. Ikkinchi o'g'il esa Hasanov Qoryog'di bo'lgan. Yoppasiga kollektivlashtirishdan ilgariyoq uning boy otasiga tegishli uy-joylarning bir qismi va er-suvlari davlat tomonidan egasi yo'q deb tortib olingan. Bu paytda o'g'li Qoryog'di 20-25 yoshlardagi yigit bo'lgan. Qisqacha aytganda unga otasidan qolgan mol-mulk tegmagan. U qishloq chetidan bir paytlar otasiga qarashli bo'lgan bir parcha erga uy solib, dehqonchilik bilan kun kechirgan. U biroz chapaniroq kishi bo'lgan. Aytishlaricha xech narsadan tap tortmagan. Kolxozlar tashkil qilinib, barcha birgalikda dalada mehnat qilish tashkil qilinganidan keyin Xamraev Ergashvoy xoxlasa ishga chiqib, xoxlamasa chiqmay o'z bilganicha ishlarni qilib yuravergan. U kolxoz raisiga ham, xosilot va brigadirlarga ham bo'ysunmagan. Ko'pincha kolxoz a'zolariga «mening otamni erida ishlab tirikchilik qilishayapsan, oilalaringni boqishayapsan. Xoxlasam ishlayman kolxozingda, xoxlamasam yo'q» deb ta'na ham qilib turganligi ko'pchilikning yodida saqlanib qolgan. Uning aynan shunday o'zboshimchaligi, birovga bo'ysunmasligi rahbarlarga, birinchi navbatda kolxoz raisiga yoqmagan. Kolxoz a'zolari va brigadirlar bilan janjallashganligi uchun ilgari ham sudlangan, lekin qamalmagan ekan.²

Hasanov Qoryog'dining oilasi ham bo'lib, u uylangan va bitta qizi bo'lgan. 1937 yilda ommaviy qatag'onlar boshlangan paytda Rovot qishlog'idagi bir qancha kishilar qatori Hasanov

¹ Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август – 5 ноябр). Иккинчи китоб. / Масъул муҳаррир Н. Каримов. – Тошкент: “Шарқ”, 2007. – 48-бет.

² Марҳамат туманидаги Гаргар қишлоғилик Шаробиддин тоға ҳикоясидан.

Qoryog'di ham qamoqqa olib ketilgan. Uning aka-ukalari bo'lmaganligi uchun uni birov surishtirmagan ham. Xatto aka ukalari, qarindosh urug'lar borlar ham bu paytda qamoqqa olinganlar taqdiri bilan qiziqishga qo'rqqan. Ko'plab qamoqqa olinganlar qatori Hasanov Qoryog'di qamoqqa olinganicha dom-daraksiz ketgan. Lekin afsuski, uning avlodlari qolmagan. U qamoqqa olinganidan keyin bir-ikki oy o'tganidan keyin xotini yosh qizchasini olib ota uyiga, Qizilqiyaga ketib qolgan. Ularning keyingi taqdiri haqida aniq ma'lumot topa olmadik. Qishloqdagi qariyalar Hasanov Qoryog'dining xotini Qizilqiyaga ketganidan keyin boshqa turmush qurib ketgan, chunki u ancha yosh edi, o'sha tomonlarda avlodlari qolgan bo'lsa kerak deb aytdilar. Hasanov Qoryog'dining "uchlik" qarori bilan otuv jazosiga hukm qilinganini kitobdagi ma'lumot bo'yicha ularga aytib berdik. Gargar qishlog'idagi biz suhbatlashgan qariyalar uning nomiga qur'on o'qib, uni avlodlarini axtarib kelganligimiz uchun bizdan juda minnatdor bo'ldilar.

Ismoiljonov Mulla Isoqjon O'zSSR NKVD xuzuridagi «uchlik»ning 1937 yil 8 sentyabrdagi yig'ilishida qatag'on qilingan. «Uchlik» tarkibi O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari Zagvozdin, O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o'rinbosari To'rabekov va O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlinlardan iborat bo'lgan. "Uchlik"ning 1937 yil 8 sentyabrdagi yig'ilishida NKVD Andijon sektori taqdim etgan 2569-ish bo'yicha 5 kishi otuv jazosiga hukm etilgan. Otuv jazosiga hukm qilinganlardan biri Ismoiljonov Mulla Isoqjon edi. "Uchlik" yig'ilishi bayonnomasida u haqida quyidagicha ma'lumot keltirib o'tilgan:

Ismoiljonov Mulla Isoqjon – 1874 yili Marhamat rayoni Davlar (aslida Davkar) qishlog'ida tug'ilgan, din xizmatchisi, 1932 yili soliq to'lamagani uchun sudlangan, qamoqdan qochgan. O'z oldiga sovet hokimiyatini qurolli ag'darish va O'zbekistonda "Musulmonobod" musulmon davlatini yaratishni maqsad qilib olgan aksilinqilobiy, isyonchi, millatchi, diniy tashkilot ishtirokchisi sifatida aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy, mag'lubiyatchilik, antikolxoz hamda xotin-qizlarning ozod qilinishiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan.¹

Ismoiljonov Mulla Isoqjon yashab o'tgan qishloq bugungi kunda ham Davkar nomi bilan ataladi. Bu qishloq sobiq Sverdlov kolxozi (keyinchalik U. Qoraboev jamoa xo'jaligi deb yuritilgan) hududidadir. Dehqonobod mahalla fuqarolar yig'ini kotibi Adaxam aka Nuraliev Ismoiljonov Mulla Isoqjonning avlodlarini topishda bizga katta yordam berdi. SHuningdek, Davkar mahallasida yashovchi Toshpo'lat tog'a Qurbonov, Rahmonjon tog'a Temirovlar ham o'sha 1937-1938 yillardagi qatag'onlar haqida va bu qishloqdan qatag'on qilinganlar haqida qimmatli ma'lumotlarni aytib berdilar.

Biz Ismoiljonov Mulla Isoqjonning nabirasi Isaqov Ibrohimjon aka bilan uchrashib suhbatlashdik. U kishi bizga bobosi haqida bilganlarini hikoya qilib berdi. Uning aytishicha bobolari ya'ni Ismoiljonov Mulla Isoqjon haqiqatan ham katta mulla bo'lgan. U Qur'onni yod olgan, shuningdek, islom dini shariat qonunlarini, hadis va tafsirlarni juda yaxshi bilgan, bilimdon kishi bo'lgan. Ismoiljonov Mulla Isoqjonning butun Marhamat rayonida obro'si juda yuqori bo'lgan. Bu kishi hamqishloqlariga hamisha diniy pand-nasihatlar qilib, qishloq jamoasini o'zaro jipslashtirishda katta o'rin tutgan. Butun mahalla bu odamga quloq solgan, uning aytganlarini qilgan. Ismoiljonov Mulla Isoqjon mahalladagi to'y va ma'rakalarga ham o'zi bosh-qosh bo'lib, beva-bechoralarga yordam qo'lini cho'zib, ko'pchilikka mehribonchilik qilgani bilan ham dong qozongan.

Ismoiljonov Mulla Isoqjon 1920 yillardanoq sovet hokimiyati organlari tomonidan turli bahonalar bilan ta'qibga olingan. Chunki sovet hukumati din xizmatchilarini va ruhoniylarni ham o'ziga dushman deb bilganligi barchaga ma'lum. Qolaversa, Ismoiljonov Mulla Isoqjon katta mulla bo'lgan, chuqur diniy bilimga ega bo'lgan. U qishloq ahlini shariat qonun-qoidalariga rioya qilishga, islom dini tamoyillari asosida turmush qurish va yashashga da'vat etar edi. Qishloq ho'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish yillarida Ismoiljonov Mulla Isoqjon

¹ Шамсутдинов Р. Қатагон қурбонлари (1937 йил 10 август – 5 ноябр). Иккинчи китоб. / Масъул муҳаррир Н. Каримов. – Тошкент: "Шарқ", 2007. – 52-бет.

ma'lum bir muddat qamoqda yoki surgunda bo'lib qaytgan. Aslida uning ortiqcha mol-mulki yoki eri ham bo'lmagan. U mulla bo'lganligi sababli qamoqqa olingan. Chunki qishloqda uning obro'si juda baland bo'lib, barcha uning maslahatiga so'zsiz amal qilgan. Bu davrda sovet NKVD organlari xalq ichida katta obro'ga ega bo'lgan, odamlarni o'z ortidan ergashtira oladigan kishilarni yo'qotishni bosh maqsad qilib qo'ygandi. Ismoiljonov Mulla Isoqjon ham ana shunday ta'qibga duch kelgan edi. Aslida u sovet davlatiga qarshi xech qanday tashviqot va targ'ibot ishlarini olib bormagan, o'z oldiga "Musulmonobod" davlatini barpo etishni ham maqsad qilib qo'ymagan.

Ismoiljonov Mulla Isoqjon xotinining ismi Xadichaxon bo'lgan. Ularning jami 5 ta farzandari bo'lib, ulardan 3 tasi yoshligida vafot etib ketishgan, faqat bir qiz va bir o'g'il qolgan xolos. Katta farzandlari qiz bo'lib, uning ismi Mavludaxon bo'lgan va u taxminan 1910 yoki 1911 yilda tug'ilgan bo'lib, otasi qamoqqa olingan paytda turmushga uzatilgan edi. Mavludaxon qo'shni SHomat qishlog'iga turmushga chiqqan, undan etti nafar farzand qolgan, o'zi 1988 yilda vafot etgan. Uning farzandlari xozir ham SHomat qishlog'ida yashashadi.¹

Ismoiljonov Mulla Isoqjon o'g'lining ismi Hamidullo bo'lib, u 1922 yilda tug'ilgan. U otasi qamoqqa olinib, otib tashlangan vaqtda 15-16 yoshli o'spirin bo'lgan. U otasini juda yaxshi eslab qolgan bo'lib, otasi to'g'risidagi bilganlarini keyinchalik farzandlariga so'zlab bergan edi. Ismoiljonov Mulla Isoqjonning o'g'li Ismoilov Hamidullo aka oddiy dehqon bo'lgan, umr bo'yi kolxozda ishlagan. U kishi 1997 yili 75 yoshida vafot etgan ekan. Undan 4 ta farzand qolgan. Biz katta o'g'li Isaqov Ibrohimjon aka bilan uchrashib suhbatlashdik. Ibrohimjon aka 1952 yilda tug'ilgan. Farg'onada ipak qurti urug'chiligi ixtisosligi bo'yicha texnikumda o'qigan. Uzoq vaqt rayonda va kolxozda ipakchilik agronomi bo'lib ishlagan. Xozir nafaqaga chiqqan. Uning aytishicha, bobosi Ismoiljonov Mulla Isoqjon qamoqqa olinib, otuvga hukm qilinganidan keyin uning oilasi qiyin ahvolda qolgan. Xotini va farzandlari "xalq dushmani"ning oila a'zolari sifatida e'tibordan qolgan. Ularga kolxoz tomonidan yordam ko'rsatilmagan. Ular qarindosh-urug'larning va qo'ni-qo'shnilarning yordami bilan bir amallab kun kechirganlar. Otasi ya'ni Ismoiljonov Mulla Isoqjonning o'g'li Hamidullo aka yolg'iz farzand bo'lganligi uchun urushga olinmagan. U kolxozda ishlab, oilani boqqan. Keyinchalik, urushdan keyingi yillarda ularning ahvoli birmuncha o'nglanib qolgan. NKVD organlari ham ularni ta'qib qilmay qo'ygan. Hamidullo ham bu paytga kelib katta yigit bo'lib qolgan va kolxozda ishlay boshlagan edi. U otasidan erta ayrilib qolgani uchun o'qiy olmagan, kolxozda oddiy dehqon bo'lib ishlagan ekan.

Hamidullo aka urushdan keyingi yillarda, 1950 yillarda uylangan. Undan 4 nafar farzand bo'lib, ulardan biri qiz, qolganlari o'g'il edi. Ularning ismlari Rahnamaxon, Ibrohimjon, Isroiljon, Dilshodbek. Ularning barchasi oilali bo'lib, bolali-chaqali bo'lib ketganlar, Marhamat tumanining turli joylarida yashashadi va turli ishlarda ishlashmoqda. Onalarining ismi Tojibarxon bo'lib, u 2003 yilda vafot etgan.

Qatag'on qurboni Ismoiljonov Mulla Isoqjonning nabirasi Isaqov Ibrohimjon aka bobolarining nomlari oqlanib, kitoblarda tilga olinganidan nihoyatda quvondi va respublikamizda amalga oshirilayotgan bu kabi xayrli ishlardan juda minnatdor bo'ldi.

¹ Исмоилжонов Мулла Исоқжоннинг набираси Исаков Иброҳимжон aka хотираларидан.

XULOSA

Sovetlar hukmronligi yillarida amalga oshirilgan qatag'onlar o'z xususiyatiga ko'ra keng ko'lamda va ommaviy ravishda o'tkazilgan va u juda dahshatli kechgan. Ayniqsa, 1937-1938 yillardagi qatag'onlar juda katta fojialarga sabab bo'ldi. Bu yillarda aholining barcha qatlam va tabaqalari, yoshu qari bab-baravar qatag'on komiga tortildi. Qatag'ondan ayniqsa oddiy dehqonlar katta jabr ko'rdilar. 1937-38 yillardagi qatag'onlar bejiz «quloqlar operatsiyasi» deb atalmagan edi. Qatag'onlarning asosiy ob'ektini qishloq fuqarolari tashkil qilgan.

Bu yillarda dehqonlar o'z xususiyatiga ko'ra qayta qatag'onga uchradilar. Chunki, 1929-1932 yillarda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish davrida ham dehqonlar ommasi quloqlashtirish niqobi ostidagi qatag'onni boshdan kechirgan edilar. Zotan, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishning o'zi ham zo'rlik va qonunsizliklar asosida o'tkazilgan, o'ziga to'q xo'jaliklarni quloq qilish esa ommaviy qatag'on tusini olgan edi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda sovetlar tomonidan amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va quloq qilish jarayonidagi zo'ravonliklar, 1937-1938 yillardagi qatag'onlar va uning dahshatlari Marhamat rayoni misolida ko'rib chiqilib, umumlashtirildi. Kollektivlashtirish yillarida «quloq» xo'jaligi sifatida tugatilgan va surgun qilingan kishilar haqida ma'lumotlar jamlandi. Aytish mumkinki, quloq qilingan kishilar ham aslida o'z mehnati evaziga kun kechirayotgan dehqonlar bo'lgan. Ular oila a'zolari bilan birga surgun qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida 1937 yilda Marhamat rayonidan qatag'on qilinganlardan Radjapov Isroil, Sadjagatov Dadajon, Hasanov Qoryog'di, Ismoiljonov Mulla Isoqjonlarning hayot yo'li va ayanchli qismati o'rganildi. Ulardan ikkitasining (Radjapov Isroil, Ismoiljonov Mulla Isoqjon) avlodlarini topib suhbatlashishga va esdaliklarini yozib olishga muvaffaq bo'ldik, bittasi haqida (Hasanov Qoryog'di) esa hamqishloqlari aytib bergan xotiralarni yozib oldik. Bir kishi haqida (Sadjagatov Dadajon) esa ma'lumot olishning imkoni bo'lmadi, chunki uning avlodlarini topa olmadik, u haqda biladigan kishilarni ham uchrata olmadik.

Mavzuni o'rganish natijasida amin bo'ldikki, O'zbekistonda sovet hokimiyati qaror topgan dastlabki kunlardan o'zbek xalqiga nisbatan zo'ravonlik va qatag'onlar boshlangan va u mustabid tuzum qulagunga qadar davom etib kelgan. Ayniqsa, 1937-38 yillarda juda ko'plab vatandoshlarimiz nohaqdan yo'q qilib yuborilgan. Oddiy qishloq aholisi dehqonlarga hech qaerda yo'q soxta ayblar qo'yilib, beayb otib tashlangan yoki uzoq muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. Ularning deyarli barchasi xech qanday aybsiz kishilar edi. Qamoqqa hukm qilinganlar Rossiyaning juda chekka, sovuq o'lkalaridagi jazo lagerlariga yuborilgan. Bu begona joylardan sog'-omon qaytib kelganlar juda ozchilikni tashkil qilgan. Qamoqqa hukm qilinganlarning juda ko'pchiligi o'sha lagerlarda xoru-zorlikda o'lib ketganlar. Biz bitiruv

malakaviy ishimizda taqdirini o'rgangan marhamatlik vatandoshlarimizdan bittasi otuv jazosiga hukm qilingan, qolganlari 10 yil muddatga qamoqqa hukm qilingan. Ulardan birontasi ham qamoqdan qaytmagan. Xatto ulardan xat ham kelmagan. Ularning oila a'zolari o'z otalarining taqdiridan behabar holda bugungi kunlargacha umid bilan keldilar.

Mustabid tuzumning qatag'on siyosatining butun dahshatlari O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan keyingina oshkor bo'ldi. Nohaqdan qatag'on qilingan vatandoshlarimizning tarixi va taqdirini o'rganish, ularni nomma-nom aniqlash, xotiralarini abadiylashtirish kabi xayrli ishlar yo'lga qo'yildi. Bu kabi ishlarga Prezidentimiz I.A. Karimovning shaxsan o'zi bosh-qosh bo'lmoqda. Xalqimizning uzoq yillar kutgan orzu-niyatlari ro'yobga chiqmoqda. Nohaqdan otilgan, qamalgan vatandoshlarimizning avlodlari o'z otalarining nomlari qayta tiklanganidan, ularning nomi oqlanib, xotiralarini abadiylashtirilayotganidan minnatdor bo'lib, mustaqillikka shukronalar qildilar.

Mazkur mavzuni o'rganish asnosida 1937-1938 yillardagi qatag'onlarning naqadar dahshatli kechganini, undan juda ko'plab kishilar jabr ko'rganini bilish mumkin. Bu dahshatli davrni boshdan kechirgan ajdrlarimiz ruhi shod bo'lishi uchun ham bugungi mustaqil davlatimizga munosib kishilar bo'lishimiz, uning taraqqiyoti uchun bor kuchimiz bilan xissa qo'shishimiz lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. Халқ хотираси олдида бош эгамиз. Т.: Шарқ, 2001.
4. Андижон тарихидан лавхалар. – Андижон: 2008.

5. Ватанимиз ўтмишидан. –Андижон: «ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA», 2007.
6. Маҳмудов М. Қатағон қурбонлари. – Т.: Ўқитувчи, 1991.
7. Репрессия. 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск 1. /Сост.: Р.Т.Шамсутдинов, Н.Ф.Каримов, Э.Ю.Юсупов. – Т.: Шарк, 2005.
8. Репрессия 1937-1938 гг. Документы и материалы. Под. ред. Н.Ф. Каримова. /Сост.: Р.Т. Шамсутдинов, Э.Ю. Юсупов, А. Мамажонов, Э. Дусматов. Выпуск 3. Жертвы большого террора из Узбекистана. 1937 год ноябрь. – Т.: Шарк, 2007.
9. Репрессия 1937-1938 гг. Выпуск 4. Жертвы большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. /Отв. ред. Каримов Н.Ф., Шамсутдинов Р.Т. //Сост.: Р.Т. Шамсутдинов, М. Абдуллаев, Э. Дусматов, Х. Курбанов. – Т.: Шарк, 2008.
10. Среднеазиатский кишлак в годы большого террора. Документы и материалы. /Сост.: Р.Т.Шамсутдинов, Э.Ю.Юсупов, С.Хошимов, Э.П.Дусматов. – Андижан: Изд. АндГУ, 2007.
11. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том.1. /Сост. Р.Т. Шамсутдинов, Б.М. Расулов. – Т.: Шарк, 2006.
12. Тошболтаев Қ. Марҳамат: кишлоқларимиз ҳаётидан баҳс. – Андижон: «ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA», 2007.
13. Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август-5 ноябрь) Иккинчи китоб. – Т.: Шарк, 2007.
14. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари. – Т.: Шарк, 2001.
15. Шамсутдинов Р. Жертвы репрессии. – Андижан: Мерос, 1994.
16. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун.(Ўрта Осиё республикалари мисолида) – Т.: Шарк, 2003.
- 17.Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. – Т.: Шарк, 2001.
18. Шамсутдинов Р., ва бошқалар. Тарихнинг хасратли саҳифалари. – Т.: Шарк, 2006.
19. Ўзбекистон ССР тарихи 3-том. Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Т.: Фан, 1971.
20. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида./Тузувчилар М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камалов ва бошқ. – Т.: Шарк, 2001.
21. Қиличев Ф. Зулматдан садолар. – Т.: Адолат, 1994.
22. Қатағон қурбонлари (1938 йил февраль, сентябрь). Бешинчи китоб. /Таҳрир ҳайъати Р.Шамсутдинов ва бошқ. //Тузувчилар гуруҳи: Р.Шамсутдинов, Х.Қурбонов, Ж.Расулов, Ф.Эгамбердиев, У.Бекимметов. – Т.: Шарк, 2009.